

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**  
**6-sinf**  
**1-variant**

1-25 matematika, 26-45 ona tili va adabiyoti.  
(B-bilish; Q-qo‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi F.I.SH).....

**1. (B 1,3 ball)** Juft va toq sonlar uchun quyidagi mulohazalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Nº	Mulohazalar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	Ikkita juft sonning yig‘indisi doimo juft bo‘ladi		
2	Ikkita toq sonning ko‘paytmasi doimo toq bo‘ladi		
3	Uchta toq sonning yig‘indisi doimo juft bo‘ladi		

- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri  
B) to‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri  
C) to‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri  
D) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri

**2. (B 1,3 ball)** Eng katta bir xonali va eng kichik ikki xonali tub sonlar yig‘indisini toping.

- A) 18 B) 20 C) 24 D) 19

**3. (B 1,3 ball)** Quyidagi kasrlardan nechtasi  $\frac{48}{60}$  ga teng:  $\frac{3}{7}; \frac{8}{10}; \frac{24}{30}; \frac{4}{5}; \frac{16}{24}$

- A) 2 ta B) 1 ta C) 4 ta D) 3 ta

**4. (B 1,3 ball)** O‘zaro teskari bo‘lgan sonlar juftligini toping va mos keltiring.

1. $\frac{7}{10}$	A. $\frac{4}{7}$
2. $1\frac{3}{4}$	B. $\frac{8}{10}$
3. $\frac{5}{4}$	C. $\frac{10}{7}$
	D. $1\frac{1}{5}$

- A) 1 – C; 2 – D; 3 – B.
- B) 1 – D; 2 – B; 3 – A.
- C) 1 – C; 2 – A; 3 – B.
- D) 1 – D; 2 – A; 3 – C.


**5. (Q 1,6 ball)** Ushbu  $54 * +248$  yig‘indi 2 ga bo‘linishi uchun yulduzcha (\*) o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan raqamlar yig‘indisini toping.

- A) 16 B) 18 C) 20 D) 22

**6. (Q 1,6 ball)** 3 ga bo‘linadigan lekin 9 ga bo‘linmaydigan dastlabki 5 ta ikki xonali sonlar yig‘indisini toping.

- A) 92 B) 102 C) 99 D) 105

**7. (Q 1,6 ball)** Quyidagi ko‘paytuvchilar daraxtini to‘ldiring va aylanalarga to‘g‘ri keladigan sonlar yig‘indisini toping.



- A) 12 B) 60 C) 18 D) 9

**8. (Q 1,6 ball)** 6 sinfda 54 ta o‘g‘il bola va 36 ta qiz bola o‘qiydi. Bu o‘quvchilardan bir xil tarkibli (qizlar soni ham teng, o‘g‘il bolalar soni ham teng) guruhlar tuzildi. Har bir guruhdagi o‘g‘il bolalar soni eng kami bilan nechta bo‘lishini toping.

- A) 3 B) 6 C) 4 D) 18

**9. (Q 1,6 ball)** 18, 27 va 30 sonlarining EKUKini toping.

- A) 90 B) 540 C) 180 D) 270

**10. (Q 1,6 ball)** Tenglamani yeching.

$$\frac{4}{5} = \frac{12}{x+8}$$

- A) 9 B) 6 C) 8 D) 7

**11. (Q 1,6 ball)**  $\frac{5}{9}$  va  $\frac{3}{4}$  sonlar orasida maxraji 36 ga teng bo‘lgan nechta kasr bor?

- A) 8 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 9 ta

**12. (Q 1,6 ball)** Kasrlarni qisqartiring, so‘ngra umumiyligi maxrajga keltiring.

$$\left(\frac{14}{35}; \frac{12}{32}\right)$$

- A)  $\left(\frac{14}{40}; \frac{15}{40}\right)$  B)  $\left(\frac{16}{40}; \frac{15}{40}\right)$  C)  $\left(\frac{16}{40}; \frac{18}{40}\right)$  D)  $\left(\frac{14}{40}; \frac{18}{40}\right)$

**13. (Q 1,6 ball)** Berilgan sonlarni o‘sish tartibida joylashtiring:

$$a = \frac{9}{10}; \quad b = \frac{4}{5}; \quad c = \frac{13}{15}; \quad d = \frac{28}{30}$$

- A)  $b < c < d < a$  C)  $c < b < a < d$   
B)  $b < c < a < d$  D)  $d < a < c < b$

**14. (Q 1,6 ball)** A ning qiymatini toping.  $\frac{2}{5} + \frac{7}{15} + \frac{A}{45} = \frac{8}{9}$

- A) 0 B)  $\frac{1}{45}$  C) 1 D) 3

**15. (Q 1,6 ball)** Uchburchakning tomonlari  $\frac{2}{9}$  m,  $\frac{13}{18}$  m va  $\frac{41}{45}$  m ga teng. Shu uchburchak perimetreni toping.

- A)  $1\frac{77}{90}$  B)  $1\frac{71}{90}$  C)  $2\frac{7}{90}$  D)  $2\frac{3}{90}$

**16. (Q 1,6 ball)** Tenglamani yeching:  $\left(x - 2\frac{13}{14}\right) - 1\frac{6}{7} = 3\frac{17}{42}$

- A)  $8\frac{4}{21}$  B)  $8\frac{4}{42}$  C)  $7\frac{4}{21}$  D)  $9\frac{4}{42}$

**17. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:  $\frac{28}{75} \times \frac{3}{4} \times \frac{5}{7}$

- A) 1 B) 5 C)  $\frac{1}{3}$  D)  $\frac{1}{5}$

**18. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:  $3\frac{3}{17} \times 5\frac{2}{3}$

- A)  $\frac{1}{15}$  B) 18 C)  $\frac{1}{18}$  D) 15

**19. (Q 1,6 ball)** Avtomobil 54 km/h tezlik bilan 2 soat-u 10 minut, 60 km/h tezlik bilan 2 soat-u 45 minut yo‘l yurdi. Avtomobil jami necha km yo‘l yurgan?

- A) 332 km B) 248 km C) 282 km D) 292 km

**20. (Q 1,6 ball)** Uchburchakning perimetri 72 cm ga teng. Uning bir tomoni perimetrining  $\frac{1}{3}$  qismiga, ikkinchi tomoni  $\frac{5}{18}$  qismiga teng bo‘lsa, uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

- A) 28 cm B) 26 cm C) 32 cm D) 24 cm

**21. (Q 1,6 ball)** Buyumning narxi 24000 so‘m edi. Buyum bu narxning avval  $\frac{1}{4}$  qismiga arzonlashdi. Keyin yangi narxining  $\frac{2}{5}$  qismiga arzonlashdi. Ma’lum vaqtidan so‘ng buyum oxirgi narxning  $\frac{1}{3}$  qismiga qimmatlashdi. Nodirning 15000 so‘m puli bor. Uning puli bu buyumni sotib olish uchun yetadimi?

- A) ha yetadi, 400 so‘m ortib qoladi;  
B) ha yetadi, 600 so‘m ortib qoladi;  
C) yo‘q yetmaydi, 600 so‘m kerak bo‘ladi;  
D) yo‘q yetmaydi, 400 so‘m kerak bo‘ladi;

**22. (Q 1,6ball)** Ifodaning qiymatini  $a = \frac{9}{34}$  bo‘lganda hisoblang:

$$2\frac{11}{15} \times a + 1\frac{3}{5} \times a - \frac{14}{15}a$$

- A)  $\frac{9}{15}$  B)  $\frac{8}{10}$  C)  $\frac{9}{10}$  D)  $\frac{4}{10}$

**23. (M 2 ball)** Agar  $EKUB(a, b) = 72$  va  $EKUK(a, b) = 432$  bo‘lib,  $a$  va  $b$  sonlari bir-biriga bo‘linmasa,  $a + b$  ni toping.

- A) 300 B) 320 C) 280 D) 360

**24. (M 2 ball)** Hisoblang:  $\frac{1}{12} + \frac{1}{20} + \frac{1}{30} + \frac{1}{42} + \dots + \frac{1}{306}$

- A)  $\frac{5}{18}$  B)  $\frac{7}{18}$  C)  $\frac{1}{3}$  D)  $1\frac{5}{18}$

**25. (M 2 ball)** Bo‘sh hovuz birinchi quvur orqali 10 soatda, ikkinchi quvur orqali 15 soatda to‘ladi. Ikkala quvur bir vaqtida ochilsa, birgalikda bo‘sh hovuzni necha soatda to‘ldiradi?

- A) 8 soatda B) 6 soatda C) 5 soatda D) 4 soatda

**26. (B 2,5 ball)** -roq qo‘sishmchasini qo‘shib bo‘lmaydigan belgi bildiruvchi so‘zlar keltirilgan qatorini belgilang.

- A) ko‘rkam, sifatli, majoziy  
B) kunduzgi, oilaviy, devoriy  
C) hazilkash, maqtanchoq, yaxshi  
D) maqtanchoq, toza, aylana

**27. (B 2,5 ball)** Sip-silliq, yum-yumaloq, tep-tekis, oppoq ushbu belgi bildiruvchi so‘zlarga tegishli birlik keltirilgan qatorni aniqlang.

- A) ozaytirma daraja C) qiyosiy daraja  
B) orttirma daraja D) oddiy daraja

**28. (B 2,5 ball)** Munosabat shakllariga ega fe’l gapda qaysi bo‘lak vazifasida keladi?

- A) ega B) to‘ldiruvchi C) aniqlovchi D) kesim

**29. (Q 4,5 ball)** Ushbu gapning kesimi haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Bir guruh olimlar mehmonxonaga yo‘l olishdi.

- A) olishdi – III shaxs, ko‘plik C) yo‘l olishdi – II shaxs, birlik  
B) yo‘l olishdi – I shaxs, birlik D) yo‘l olishdi – III shaxs, ko‘plik

**30. (Q 4,5 ball)** Iboralarni izohlari bilan moslashtiring.

- 1) adabini yemoq; 2) burni ko‘tarilmoq; 3) misi chiqmoq; 4) bir yoqadan bosh chiqarmoq.  
a) qilmishiga yarasha jazo olmoq; b) gerdaymoq; c) kibrlanmoq; d) hamjihat bo‘lmoq; e) siri fosh bo‘lmoq; f) yakdillik bilan harakat qilmoq.

- A) 1 – d; 2 – a; 3 – b; 4 – d, c  
B) 1 – a; 2 – d; 3 – d, f; 4 – c  
C) 1 – a; 2 – b, c; 3 – e; 4 – d, f  
D) 1 – d, f; 2 – e; 3 – c; 4 – b

**31. (Q 4,5 ball)** Iboralarni izohlari bilan moslashtiring.

1) ko‘zi to‘rt bo‘lmoq; 2) ko‘z yummoq; 3) og‘zidan bol tommoq; 4) og‘zi qulog‘ida; 5) og‘zining tanobi qochgan

a) kutmoq; b) ko‘rib ko‘rmaslikka olmoq; c) xursand; d) shurinsuxan.

A) 1 – a; 2 – b; 3 – d; 4-5 – c

B) 1 – c; 2 – d; 3 – b; 4-5 – a

C) 1 – c; 2 – a; 3-4-5 – d

D) 1 – d; 2 – c; 3-4-5 – b

**32. (Q 4,5 ball)** Birdan ortiq gaplarni bog‘lashga xizmat qilgan yordamchi so‘z ishtirokidagi gapni aniqlang.

A) Hayron bo‘lmang, do‘stim, chunki qorni faqat ekranda tomosha qilganman-da.

B) O‘zi bilan kompas, cho‘ntak chirog‘i hamda bir juft issiq qo‘lqoplarini oldi.

C) O‘zbekistonda dekabr o‘rtalari va yanvar oylarida qor yog‘adi.

D) Alisher Afrika va unda yashaydigan jonivorlar haqida ko‘p o‘qigan edi.

**33. (Q 4,5 ball)** Birdan ortiq so‘zlarni bog‘lashga xizmat qilgan yordamchi so‘z ishtirokidagi gapni aniqlang.

A) Hayron bo‘lmang, do‘stim, chunki qorni faqat ekranda tomosha qilganman-da.

B) Sovuq havoga ko‘nikmagan kishilarga qiyin, ammo Bilol o‘zida yo‘q xursand edi.

C) O‘zi bilan kompas, cho‘ntak chirog‘i hamda bir juft issiq qo‘lqoplarini oldi.

D) Bilol qo‘lqopni kiydi hamda toza qorni dumaloqlab Alisherga, Alisher esa Bilolga otdi.

**34. (Q 4,5 ball)** Ushbu matn esse yozish tartibining qaysi qismiga mos keladi?

Shirinliklarning kayfiyatni ko‘tarishi, ko‘ngillarni chog‘ qilishi kabi afzalliklari bilan birga salomatligimiz uchun, aniqrog‘i, tishlarimiz uchun qanchalik xavf tug‘dirishi haqida ham hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

A) yechim taklif qilish

B) solishtirish va farqlash

C) natijani ifodalash

D) misollar keltirish

**35. (M 5,5 ball)** O‘zaro bog‘liq matnlarni ajrating.

1. Ishlab chiqarish rivojlangani sari ona tabiat ozor chekyapti. Chunki zavodlar va mashinalardan chiqayotgan zaharli gazlar havoning zaharlanishiga sabab bo‘lmoqda.

2. So‘nggi vaqtлага qadar olimlar iqlim o‘zgarishi va migratsiya o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratmay kelayotgan edi. Gap shundaki, bir omil boshqasining yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganini isbotlash uchun o‘ta qat’iy va jiddiy ilmiy dalillar talab etiladi.

3. Yaxshi hamki, oramizda ona tabiatga befarq bo‘lmagan ajoyib insonlar bor. Ular o‘zlarining sa’y-harakatlari bilan butun insoniyatni befarq bo‘lmaslikka undayapti.

4. Hozir sizga bir maqsad yo‘lida birlashgan turli xalq vakillarining harakatlari haqida aytib beraman.

5. So‘ng qochoqlarning asl vatanida ro‘y bergan iqlim o‘zgarishining dinamik jadvali tuzildi. Iqlim o‘zgarishining asosiy ko‘rsatkichi sifatida yog‘ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi olindi.

- A) 3-, 5-matnlar o‘zaro; 1-, 2- va 4-matnlar o‘zaro bog‘liq
- B) 1-, 2-, 4-matnlar o‘zaro; 3- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq
- C) 2-, 4-matnlar o‘zaro; 1-, 3- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq
- D) 1-, 3-, 4-matnlar o‘zaro; 2- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq

**36. (B 2,5 ball)** Asar sarlavhasidan asar mazmunini taxmin qilish tahlil bosqichlarining qaysi biriga tegishli?

- A) mutolaa jarayonidagi bosqichga
- B) mutolaadan oldingi jarayon bosqichiga
- C) mutolaadan so‘nggi jarayon bosqichiga
- D) xulosa chiqarish bosqichiga

**37. (B 2,5 ball)** Keltirilgan ma’lumotlar orasidan Abdulla Qahhorga tegishlilarini aniqlang

- 1. Ustozi tushiga kirib o‘zining ko‘zoynagini berib, o‘tmishga nazar tashlashini aytgan.
- 2. “O‘g‘ri”, “Tomosha-bog”, “Bemor”, “Anor” kabi g‘am-g‘ussaga to‘la hikoyalar muallifi
- 3. Bolaligidagi voqealarini “chalakam-chatti” tushga o‘xshatadi.
- 4. O‘z tarjimayi holida otasi va amakisi she’rlar yozishgani haqida aytib o‘tgan.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 1, 2, 3
- C) 2, 3, 4
- D) Faqat 3

**38. (B 2,5 ball)** Keltirilgan ma’lumotlar orasidan G‘afur G‘ulomga tegishlilarini aniqlang

- 1. O‘z tarjimayi holida otasi va amakisi she’rlar yozishgani haqida aytib o‘tgan.
- 2. Kirmagan eshigi, qilmagan xizmati, tutinmagan ishi qolmaganligi haqida xotirlaydi.
- 3. Uning asaridagi voqealar XX asr boshlarida Toshkent atrofidagi qishloqlarda bo‘lib o‘tadi.
- 4. Ustozi tushiga kirib o‘zining ko‘zoynagini berib, o‘tmishga nazar tashlashini aytgan.

- A) 2, 3, 4
- B) 1, 2, 3, 4
- C) Faqat 3
- D) 1, 2, 3

**39. (Q 4,5 ball)** O‘xshatish badiiy tasvir vositasi ishtirok etgan gap(lar)ni aniqlang.

- 1. Pochtachi xuddi poygadan qolgan chavandozday jon-jahdi bilan eshagini savalab yo‘liga ravona bo‘ldi.
- 2. Men hech qachon o‘rni to‘lmaydigan yomon bir narsa ro‘y bergenini his qildim-u, o‘rnimda qoqqan qoziqday qotib qoldim.
- 3. Vahimali, ayni zamonda kuz oftobiday iliq bir tuyg‘u vujudimni chulg‘ab oldi.
- 4. O‘rnimdan sakrab turdim. O‘sha vahimali va qaynoq tuyg‘uga bo‘ysunib bog‘ga otildim.

- A) 2, 3, 4
- B) Faqat 2
- C) 1, 2, 3,4
- D) 1, 2, 3

**40. (Q 4,5 ball)** Ushbu parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Biz to‘rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab “qora buvi” deb ataymiz.

A) Ushbu parcha “Dunyoning ishlari” qissasidan keltirilgan bo‘lib, unda urush va urushdan keyingi davr voqealari aks ettirilgan.

B) Ushbu parcha “Shirin qovunlar mamlakati” asaridan keltirilgan bo‘lib, unda qovunxo‘r Akromjonning sarguzashtlari haqida gap boradi..

C) Ushbu parcha “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidan keltirilgan bo‘lib, unda XX asr boshlaridagi xalqimiz hayoti aks ettirilgan.

D) Ushbu parcha “Shum bola” qissasidan keltirilgan bo‘lib, unda yetim bolaning sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

**41. (Q 4,5 ball)** “Shum bola” qissasidagi ushbu voqeadan oldin qanday voqea sodir bo‘lgan edi?

O‘sha kuni men ko‘rinmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko‘tartirib olib keldi. Avval qurttakkina qilib yigirma qamchini bosh-ko‘z aralash yedik...

A) Shum bola o‘ylab topgan yolg‘onlari orqali boy ni sarosimaga solib qo‘yadi.

B) Boyning o‘sal ho‘kizi o‘rniga soppa sog‘ eshagini so‘yib qo‘yadi.

C) Shum bola xom-xatala olmalarni bo‘g‘doykorlarga sotib, pulini ishlatib qo‘yan bo‘ladi

D) To‘riq qashqan ing oyog‘ini yozish maqsadida olib chiqib, mayib qilib keladi.

**42. (Q 4,5 ball)** Qobil bobo ho‘kizning yo‘qligini bilgan vaqtdagi holatini to‘liq gavdalantirgan tasvir/chizgi berilgan qatorni aniqlang.

A) Qobil bobo yalangbosh, yalango yoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi.

B) – Endi bizga juda qiyin bo‘ldi-da. Peshonam sho‘r bo‘lmasa... – dedi chol yerga qarab.  
– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig‘laysiz? Kap-katta odam...

C) Cholning butun bo‘g‘inlari bo‘shashib ketdi, keyin tutaqishdi, ammo go‘rda bir narsa deya oladimi! “O‘ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan”.

D) Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto‘xtov aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketdi.

**43. (Q 4,5 ball)** O‘xshatish badiiy tasvir vositasi ishtirok etgan gap(lar)ni aniqlang.

1. Oxiri sap-sariq yong‘oq ajralib chiqadi. Ammo qo‘lingiz ham xina qo‘ygandek sarg‘ayib ketad.

2. Uchi bilan dum tomonini yaxshilab ishqalab yog‘lasangiz, zoldirdek sip-silliq soqqaga aylanadi..

3. Kechqurun og‘zim qulog‘imga yetgudek bo‘lib bir do‘ppi yong‘oq ko‘tarib keldim..

4. O‘rnimdan sakrab turdim. O‘sha vahimali va qaynoq tuyg‘uga bo‘ysunib bog‘ga otildim.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 2, 3, 4

- C) 1, 2, 3
- D) Faqat 2

**44. (Q 4,5 ball)** “O‘g‘ri” hikoyasidagi “Otning o‘limi – itning bayrami” epigrafi haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

- A) Yaxshi kunda yoningda bo‘lib, og‘ir kunda qorasi ham ko‘rinmaydigan kimsalar haqida
- B) Kishi boshiga tushgan musibat/kulfatdan boshqalarning manfaatdorligi haqida
- C) Yomon kunda hamdard topiladi, ammo yaxshi kunda sen bilan quvona oladigan kishining topilmasligi haqida
- D) O‘z mol-mulkini ehtiyot qilmasdan, ehtiyyotsizligi sabab barchani o‘g‘ri deb gumon qilish haqida

**45. (M 5,5 ball)** “O‘g‘ri” hikoyasidagi Egamberdi paxtafurush “kichkinagina” sharti borligini, bu shart kuzda ma’lum bo‘lishini aytgan. Ushbu shart haqidagi to‘g‘ri fikr keltirilgan qatorni aniqlang.

- A) Qobil bobo va kampiriga rahmi kelib, ho‘kizlarini sovg‘a qilish edi.
- B) Bergan ikkita ho‘kizi evaziga o‘zining yerlarini ham haydatib olish edi.
- C) Ikkita ho‘kiz evaziga Qobil boboning hovli-joyiga egalik qilish edi.
- D) Qobil bobo yetishtirgan hosildan ulush olish, uni qaram dehqonga aylantirish edi.



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO  
BAHOLASH ILMIY-AMALIY  
**MARKAZI**